


4-§. Amaliy mashg'ulot

Jahon siyosiy xaritasi bilan ishlash

1-topshiriq. Quyidagi shaharlar xaritada qaysi raqam bilan ko'rsatilgan davlatlar poytaxti ekanligini toping.

Manila	Rabot	Montevideo	Sofiya	Tegusigalpa	Kolombo
Reykjavik	Brazzavil	Ottava	Santyaگو	Bangkok	Vellington
Maputu	Amsterdam	Karakas	Sana	Stokgolm	Gavana
Islomobod	Rim	Panama	Dublin	Seul	Njamena



2-topshiriq. Berilgan ma'lumotlardan qaysi biri to'g'ri ekanligini aniqlang.

Avstriya, Belarus, Mongoliya dengizbo'yi kontinental davlatlar hisoblanadi.

Mutlaq monarxiyalarning umumiy soni 5 ta bo'lib, ulardan 4 tasi Yevropada joylashgan.


Avstraliya va Yangi Zelandiya rivojlanayotgan davlatlar guruhiga kiritiladi.

Qatar iqtisodiyoti xomashyo resurslariga asoslangani uchun iqtisodiy rivojlangan mamlakat hisoblanmaydi.

3-topshiriq. Quyidagilar orasidan bir-biriga mos keladigan juftliklarni toping.

Prezident va parlament hukumat tarkibini birligida shakllantiradi.	↔	Prezidentlik respublikasi
Muayyan davrda mamlakat hududida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi qiymati.	↔	Yalpi ichki mahsulot
Butun mamlakat hududida yagona qonunchilik tizimi amal qiladi.	↔	Federativ davlat
Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Quvayt, Bahrayn, Ummon, Brunej	↔	“Katta yettilik” davlatlari
Hokimiyatning asosiy vakolati parlament qo'lida bo'ladi.	↔	Parlamentar respublika

4-topshiriq. Jahonning siyosiy xaritasi, darslik matni va ilovasidagi ma'lumotlardan foydalanib rasmlarda qaysi davlatlar aks ettirilganini aniqlang hamda ularga tegishli geografik xususiyatlarni ajrating.



Geografik o'ri: **a** orol; **b** yarimorol; **d** dengizbo'yi kontinental; **e** ichki kontinental.

Joylashgan qit'a: **f** Yevropa; **g** Osiyo; **h** Afrika; **i** Amerika.

Boshqaruv shakli: **j** prezidentlik respublikasi; **k** parlamentar respublika; **l** konstitutsion monarxiya; **m** mutlaq monarxiya.

Davlat tuzilishi: **n** unitar; **o** federativ.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi: **p** “Katta yettilik” davlati; **q** tayanch rivojlanayotgan mamlakat; **r** neft eksport qiluvchi mamlakat; **s** o'tish iqtisodiyotidagi davlat.

5-topshiriq. Yevrosiyodagi ichki kontinental davlatlar nomi va poytaxtini daftaringizga yozib oling hamda yozuvsiz xaritada belgilang.